

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

### «ODAM SAVDOSIGA QARSHI KURASHISH TO‘G‘RISIDA»GI O‘ZBYEKISTON RYESPUBLIKASI QONUNI QABUL QILINGANLIGI MUNOSABATI BILAN O‘ZBYEKISTON RYESPUBLIKASINING JINOYAT KODYEKSIGA O‘ZGARTISH VA QO‘SHIMCHA KIRITISH HAQIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2008 yil 14 avgustda qabul qilingan  
Senat tomonidan 2008 yil 29 avgustda ma'qullangan

**1-modda.** O'zbekiston Respublikasining 1994 yil 22 sentyabrda qabul qilingan 2012-XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat **kodeksiga** (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1995 yil, № 1, 3-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 yil, № 9, 144-modda; 1997 yil, № 2, 56-modda, № 9, 241-modda; 1998 yil, № 5-6, 102-modda, № 9, 181-modda; 1999 yil, № 1, 20-modda, № 5, 124-modda, № 9, 229-modda; 2000 yil, № 5-6, 153-modda; 2001 yil, № 1-2, 23-modda, № 9-10, 165-modda; 2002 yil, № 9, 165-modda; 2003 yil, № 1, 8-modda, № 9-10, 149-modda; 2004 yil, № 1-2, 18-modda, № 9, 171-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2005 yil, № 9, 314-modda, № 12, 417, 418-moddalar; 2006 yil, № 6, 261-modda, № 12, 656-modda; 2007 yil, № 4, 158, 166-moddalar, № 6, 248-modda, № 9, 416, 422-moddalar, № 12, 607-modda; 2008 yil, № 4, 187, 188, 189-moddalar) quyidagi o'zgartish va qo'shimcha kiritilsin:

1) **135-modda** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

#### «135-modda. Odam savdosi

Odam savdosi, ya'ni odamni olish-sotish yoxud odamni undan foydalanish maqsadida yollash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish —

uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

a) o‘g‘irlash, zo‘rlik ishlatish yoki zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqtish yoxud majburlashning boshqa shakllarini qo‘llash orqali;

b) ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan;

v) ojiz ahvoldaligi aybdorga ayon bo‘lgan shaxsga nisbatan;

g) aybdorga moddiy jihatdan yoki boshqa jihatdan qaram bo‘lgan shaxsga nisbatan;

d) takroran yoki xavfli retsidivist tomonidan;

e) bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib;

j) xizmat mavqeidan foydalangan holda;

z) jabrlanuvchini O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasidan olib o‘tgan holda yoki uni chet elda qonunga xilof ravishda ushlab turgan holda;

i) qalbaki hujjalardan foydalangan holda, xuddi shuningdek jabrlanuvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjalarni olib qo‘yan, yashirgan yoxud yo‘q qilib yuborgan holda;

k) kishi a’zolarini kesib olib, boshqa kishiga ko‘chirish (transplantat) maqsadida sodir etilgan bo‘lsa, —

besh yildan sakkiz yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

O'sha harakatlar:

a) o‘n sakkiz yoshga to‘lmaganligi aybdorga ayon bo‘lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan bo‘lsa;

b) jabrlanuvchining o‘limiga yoki boshqa og‘ir oqibatlarga sabab bo‘lsa;

v) o‘ta xavfli retsidivist tomonidan sodir etilgan bo‘lsa;

g) uyushgan guruh tomonidan yoki uning manfaatlarini ko‘zlab sodir etilgan bo‘lsa, — sakkiz yildan o‘n ikki yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi»;

2) **sakkizinchi bo‘lim** quyidagi mazmundagi atama bilan to‘ldirilsin:

**«Odamlardan foydalanish** — boshqa shaxslarning fohishaligidan foydalanish yoki ulardan shahvoniy foydalanishning boshqa shakllari, majburiy mehnat yoki xizmatlar, qullik yoki qullikka o‘xshash odatlar, erksiz holat yoxud inson a’zolari yoki to‘qimalarini ajratib olish».

**2-modda.** Ushbu Qonun rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.



*LexUZ sharhi*

*Ushbu Qonun «Xalq so ‘zi» gazetasining 2008 yil 17 sentyabrdagi 183 (4593)-sonida e’lon qilingan.*

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. KARIMOV**

Toshkent sh.,  
2008 yil 16 sentabr,  
O‘RQ-179-son

*(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008 y., 37-38-son, 366-modda)*